

---

## DAVLAT BYUDJETIGA 123 MILLION SO'M UNDIRILDI



Majburiy ijro byurosi Qo'shtepa tumani bo'limi tomonidan Sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish shuningdek, davlat foydasiga undirish bilan bog'liq ijro hujjatlari ijrosi yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan, bo'lim ish yurituvdagi Marg'ilon tumanlararo iqtisodiy sudining 15.09.2020 yildagi 4-1504-2003/514-sonli ijro hujjatiga asosan qarzdor "Texmashservis" MChJ hisobidan Respublika byudjeti hamda Sud hokimiyati organlarini rivojlantirish jamg'armasiga 123 146 760 so'm davlat boji undirish to'g'risidagi ijro hujjatiga asosan qarzdor "Texmashservis" MChJdan 123 146 760 so'm davlat boji undirildi.

Mazkur ijro hujjati O'zbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining 41-moddasi 1-qismiga asosan tamomlandi.

Bundan tashqari, Qo'shtepa tumani IIB YHXBning 01.03.2021 yildagi KV 18137357327-sonli ijro hujjatiga asosan qarzdor A.Tojiboyevdan davlat foydasiga 1 225 000 so'm ma'muriy jarima undirilib, ushbu ijro hujjati O'zbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining 41-moddasi 1-qismiga asosan tamomlandi

**X.BOZOROV,**

**Majburiy ijro byurosi Qo'shtepa tumani bo'limi davlat ijrochisi.**

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-05-29 21:14:10